

TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2010-yil
14-iyun
N:24
(66773)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

E'tirof

KITOBLARGA XALQARO MUKOFOTLAR

Aziz bolalar!

MDH mamlakatlari nashir va matbaachilari o'rtasida har yili o'tkazib kelinayotgan an'anaviy «Kitobat san'ati» xalqaro ko'rik-tanlovi nufuzli tadbirlardan biri hisoblanadi. Moskva shahrida o'tkazilgan bu yilgi 7-ko'rik-tanlovda juriy e'tiboriga o'ziga xos dizayn asosida bezatilgan 158 ta turli hajmdagi kitob, albomlar taqdim etildi. Bu bosma mahsulotlar to'qqiz nominatsiya bo'yicha o'zaro bellashdilar.



O'tkazib kelinayotgan xalqaro ko'rik-tanlovda ilk bora O'zbekiston vakillari 5 nominatsiya bo'yicha sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdilar. «Hamdo'stlik» nominatsiyasida «Ma'naviyat» nashriyotining «Qoraqalpog' folklori» albom-kitobi birinchi o'ringa loyiq deb topildi. «Mening Vatanim» nominatsiyasi bo'yicha o'tkazilgan ko'rik-tanlovda ham «Ma'naviyat» nashriyotining «O'zbekiston tabiati» kitob-albomi uchinchi o'ringa loyiq topildi.

Ko'rik-tanlovning «Bolalar va o'smirlar uchun kitoblar» nominatsiyasida Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyining «Jonivorlar xaritasi o'quvchilar uchun», «Mening eng birinchi ensiklopediyam», «Bolalar bog'chasi uchun sevimli ertaklar» kitoblar turkumi, «Hamdo'stlikda chop etilgan» nominatsiyasida «San'at» jurnali nashriyotining «O'zbek tasviriy san'ati antologiyasi» kitob-albomi ham uchinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

Xalqaro ko'rik-tanlovning eng nufuzli mukofoti «Gran-pri» nominatsiyasida «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlanib, chop etilgan «Boburnoma. Miniaturalar» kitob-albomi rag'batlantiruvchi sovrin bilan taqdirlandi.

Aziz muxlislar!

Sizlarning nomingizdan mohir nashir va matbaachilarni yuksak xalqaro mukofotlar bilan qutlaymiz!

Shu zaminda
yashayapmiz,
yashar unda
KELAJAKI!

«Onajonim tabiat»
(3-4-5-6 - betlar)

O'quvchilarning ta'til kunlari boshlanganida, shoir Sa'dulla Hakim kuylagan o'sha tog'li qishloq Garashaga yo'l oldik. Garasha qayerda joylashgan, deysizmi? Bu xushmanzara qishloq Jizzax viloyati, Forish tumanidagi tog'lar orasidan joy olgan. Poytaxtdan borar ekanmiz, Garashaning havosidan aavaliga etlarimiz biroz junjikkanday bo'ldi. Nima bo'lgandayam, tog' havosi toza va salqin-da. O'zimizni eng so'lim oromgohga kelib qolgandek his qildik.

GARASHAGA BORGANMISIZ?



Kindik qoni to'kilgan joyni Har qancha kuylasang yarashar. Men tog'li qishloqning o'g'loni Maskanim maysali Garasha.

YANGI BOG'

Maktabdan ko'tarinki kayfiyatda chiqib, o'tgan yili qurib bitkazilgan ijtimoiy-iqtisodiyot

kolleji sari yo'l oldik. Kollej direktori Sobir aka Vaqqosov bino atrofidagi yangi o'tqazilgan ko'chatlarni ko'rsatib, shunday dedi:

– O'quvchilarimiz «Yangi kollejda yangi bog'» shiori ostida o'z bog'larini barpo etishyapti. Yozgi ta'tilni ham bog' parvarishi bilan o'tkazishmoqchi. Yosh bog'bonlarimiz mevali va manzarali daraxtlarga ishora qilib, bu biz ekan nihollar, deya faxrlanishmoqda. Kollej atrofidagi gulzorga qarasangiz, ko'zingiz quvnaydi. Hammasini o'quvchilarimiz o'z qo'llari bilan barpo etishgan. Kelajakda o'quvchilarimiz bog'dan daromad olib, kollej ravnaqiga hissa qo'shishni rejalashtirishgan. Zero, «Bog'ni boqsang bog' bo'lar, botmon daxsar yog' bo'lar» degan naql bekorga aytilmagan. Nihollar katta bo'lgani sayin qishlog'imizning ko'rkiga ko'rk qo'shayapti.



SOG'LOM RAQOBAT

Ko'zlagan manzirimizga yetib keldik. A.R.Beruniy nomli 78-maktab binosiga kirganimizda, ta'til bo'lishiga qaramay, turli to'garaklar bolalar bilan gavjum edi.



– Ta'til kunlarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazish maqsadida maktab qoshida yozgi sport va sog'lomlashtirish oromgohini ochdik, – deya so'z boshladi maktab rahbari, oliy toifali o'qituvchi, Respublika xalq ta'limi a'lochisi Berdiyoxlo'jayev. – Shaxmat-shashka, tennis, yosh kitobxon, taekvando to'garaklari ishlab turibdi. Shuningdek, ota-onalar istagi asosida qo'shimcha mashg'ulotlar ham tashkil etildi. Unda asosan oliygohga hujjat topshiruvchi o'quvchilarimizni test savol-javoblari bo'yicha imtihonlarga tayyorlaymiz. O'tgan yilgi natijalarimiz a'lo darajada bo'ldi. Shu kunlarda respublikamizning turli oliygohlarida 54 nafar o'quvchilarimiz tahsil olmoqdalar. Viloyat, tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan ko'plab rahmatlar eshitdik. Undan tashqari, maktabimizni tamomlagan ko'plab o'quvchilarimiz fan nomzodlari, fan doktor-

lari bo'lib, oliygohlarda dars berishmoqda. Olis tog' qishlog'ida hamma tomonlama mukammal maktablarni ko'rib, zavqimiz oshdi. Bundan ko'nglimiz tog'dek ko'tarilib, Berdiyoxlo'jayev bilan xayrlashgach, qo'shni Amirxon Boqiyev nomli 79-maktabga bordik. Maktab rahbari Shodiyor Amrullayev bizni maktab tarixi bilan tanishtirdi, maktabning sobiq o'quvchilari orasidan yetishib chiqqan olimlar va fan arboblarning suratlarini, fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan o'quvchilar surat doskasini ko'rsatdi. Shuni angladikki, o'quvchilar borasida ikki maktab o'rtasida sog'lom raqobat mavjud ekan. Har ikki maktab o'quvchilari nafaqat viloyatda, balki respublikada ham yuqori o'rinlarni olishgan. Qani endi yurtimizning barcha maktablarida shunday sog'lom raqobat bo'lsa...



Xullas, Garasha tog'li qishlog'ida shunday mehnatkash, ilmga chanqoq o'g'il-qizlar yashaydilar. Siz ham garashalik tengdoshlaringizdan o'rnak olmoqchimisiz? Unda ilmga intilishni, mehnat qilishni shu ta'til kunlaridan boshlang! Garashadan qaytayotganimizda, bir hamshira qiz bilan tanishdik. Adabiyot sohasiga dazli bo'lmasa-da, uddi adabiyotchilarday qalam tobratishi bizga yoqdi. Uning ijod namunalaridan birini sizga ham ilindik.



RAYHONGUL VA ALLA

Nima bo'ldi-yu, qo'shni hovlilardan biriga zarur yumush yuzasidan borib qoldim. Hovlining barcha burchagiga, jumladan, ko'cha eshik qadar onaning allasi taralib turibdi. Uni siz ham tinglasangiz, alla sehriga mahliyo bo'lib qolasiz. Yoxud men kabi ko'nglingiz yumshab, yum-yum yig'laysiz. Illo meningdek hech kim ona mehriга zor bo'lmasin...

Ko'cha eshik oldida rayhonlar shamolda mayin tebranyapti. Borliqni uning xushbo'y ifori tutgan. Eshik qo'ng'irog'iga qo'l cho'zar ekanman, xayolim ichkaridan kim chiqib qarshilashida edi. Shu payt bolaning shirin xurragini-yu yoqimli alla ohangini eshitib, jim bo'lib qoldim. Alla shu qadar jonning huzuri ediki, bu holatni sizga tasvirlab berolmayman. Eshik tutqichini ushlab tortdim. Eshikka qul solinmagan ekan. Sekin ochib, ichkariga kirdim. Qay tasvirki, hovli to'la rayhonzor. Bir-ikki qadam bosgach, boshqa yurishga jur'atim yetmadi. Yo'lakning bir chekkasidagi o'rindiqqa o'tirdim. Mening bo'yim qadar bo'y cho'zgan rayhonlarni qo'lim bilan silkiitib qo'ydim. Hidi atrofni tutib ketdi. Beixtiyor alla ham borgan sari elitib borardi. O'y-xayollar daryosiga g'arq edim... Alla, alla, allajon, Uxla bolam Muljon. Qo'ynimdagi mulojog'im, Qizim mening jonajon... Zulayho QUDRATOVA

BINAFSHA

Binafshaxon, binafsha,
Sen go'zalsan hamisha,
Hiding yoqimli juda,
Yel esganda osuda.
Silkinasan ajoyib,
Gulbarglarimgni yoyib.
Sen ko'klamning gultisan,
Sen o'lkamning gultisan!

Anhorda g'ozim,
Qishin va yozim,
Suzib yuradi,
Kezib yuradi.
Biroq bu g'ozim,
Juda ham o'z'ini,
Chunki ovqat kam,
Anhorda bu dam,
Anhoring bori,
Kimyoviy dori.

6,07



MO'JIZAKOR O'LKAM

Yoshligimdan tabiatshunoslik fanini sevib o'rganaman. Tabiat sehdan bahra olib, ihomim jo' shadi. She'rar yozaman, rasmlar chizaman. Maktabimiz qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagiga a'zoman. To'garak rahbarimiz Shohida opa Bozorova bizga: «O'z uyingizni qanday ozoda tutsangiz, maktabingizni ham shunday tuting», deya tayinlaydilar takror va takror.



Sitora ALXIYEVA,
Jizzax viloyati, Zafarobod tumani
2-umumta'lim maktabim
9-«B» sinf o'quvchisi



moddasida shunday deyilgan: «Tabiatdagi hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy xarakteristikalar umumiylikdir. Ularni asrab-ayaylash, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir». Tabiatdagi sababiy o'zgarishlarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish va uni asrash muammolari bilan shug'ullanish maqsadida ekologiya fani vujudga keldi. Ekologiya so'zining ma'nosi yunonchadan «Oykos» – uy, yashash joyi va «Lokos» – fan degan ma'nolarni anglatadi. Ekologiya – barcha tirik mavjudotlarning umumiy uyi bo'lgan tabiatni asrash, muhofaza qilish haqidagi fanidir.

Nashrga tayyorlaganlar:

- To'liqin HAYIT,
- Feruza JALILOVA,
- Feruza ADILOVA,
- Yusuf ABDULLAYEV,
- Gulyuz ORIFJONOVA,
- Nargiza ABDULLAYEVA,
- Olovuddin ORIPOV

Tong yulduzi
Toshkent – 2010

ONAJONIM


TABIAT

Tong yulduzi – 2010

O'ZMU goshidagi S.H. Strojiddinov nomi akademik Sarvinoz UMRZOQOVA

litseyining 2-bosqich talabasi

Yaqinda Butunjahon atrof-muhit kuni munosabati bilan «Tabiat yoshlar nigohida» nomi tadbir bo'lib o'tdi. Unda O'ZMU goshidagi S. Strojiddinov, Sobir Rahimov va Zangiota akademik litsey o'quvchilari faol ishtirok etdilar. Anjumang Sobir Rahimov nomi akademik litsey mezbonlik qildi. Tadbirda o'quvchilar tadbir tashkilotchilari bo'lmish EKOMAKTAB, tabiatni muhofaza qilish, yer va suvni muhofaza qilish bosh boshqarmasi tomonidan esalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Tadbirning yana bir e'tibori jihat shundaki, unda ko'plab istiqbolli rejalari yo'lga qo'yildi. Jumladan, EKOMAKTAB tomonidan akademik litseyimizda EKOKLUB tashkili etilishi haqida fikr yuritildi va aynan shu anjumanda bu klubning ochilishi marosimi ham bo'lib o'tdi. «Suv hayot manbai», «Ona yer saxovat», «Ekologiya yoshlar nigohida» mavzusida o'tkazilgan tadbirlarda eng faol qatnashgan ishtirokchilar tadbir homiyi va tashkilotchisi EKOMAKTAB tomonidan joriy yilning iyul oyida Chetqol qo'riqxonasiga sayohatga taklif etdilar.



Qadri tabiat shaydolari! Xabaringiz bor, kuni kecha poytaxtimiz Toshkentda gazetamiz orqali e'lon qilingan «Onajonim tabiat» insholar tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Yodingizda bo'lsa, tanlovga kelgan maktublardan yil davomida «Onajonim tabiat» sahifasida foydalanishga va'da bergandik. Atrof tabiiy muhit va inson salomatligi muhofazasi masalasi dolzarb bo'lib turgan ayni damda insholarni saralab, kitobcha tarzida chop ettirsak, foydadan xoli bo'lmaydi, degan fikrga keldik.

Bu mitti kitobchamiz ham kutubxonangizdan munosib o'rin egallaydi va ta'tilda uksingillaringiz bilan miriqib o'qiysiz, degan umiddamiz.

Lazibek SOBITOV, Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 18-maktabning 8-sinf o'quvchisi

tevarak-atrofga chiqindilar tashlab, floslantirib ketadilar. Tozalikka roya qilmastik narqat tabiatga, balki biz insonlar uchun ham zararli ekanligini xayollarga ham kelitmaydilar. Istardimki, barchamiz ona tabiatimizni birdek muhofaza qilib, uni asrab-avaylaylik!

Men yurtimning so'lim Nurotasida yashayman. Qadimda tog' oralardan nurl taralayotganini ko'rgan odamlar shahritimizni Nurota deb nomlashgan ekan. Nurotaning bir tarafi sarvomat tog'lar, bir tomoni chitroyli bog'lar, qolgan joylari esa qir-adirlar bilan o'ralgan. Shahritimiz Turkiston tog'larining davomi bo'lgan, Nurota tog'larining bir tarmog'i hisoblangan Oltog' etagida, dengiz sathidan 515 metr balandlikda joylashgan. Bog'larida olma-yu o'rklar, pista-yu bodomlar mo'lj hosil beradi. Tog'laridagi tulk-yu bo'riani, toshbaga-yu ilonlari, burgut va lochinlari, noyob o'simliklardan tog' o'lasi, archalari «Qizil kitob»ga kiritilgan. Ana shunday so'lim tog' shalarga tabiat go'zalligidan bahra olish uchun kelganlar ba'zida xazon yoqib, teparak-atrofga chiqindilar tashlab, floslantirib ketadilar. Tozalikka roya qilmastik narqat tabiatga, balki biz insonlar uchun ham zararli ekanligini xayollarga ham kelitmaydilar. Istardimki, barchamiz ona tabiatimizni birdek muhofaza qilib, uni asrab-avaylaylik!

SO'LIM NUBOTAM



TABIAT CHEGARA BILMAS

Hozirgi kunda barchamizni tashvishga solayotgan muammolardan biri Orol fojiasidir. Orolning qurishi natijasida uning atroflarida yashovchi 170 hayvon turidan faqat 38 tasi saqlanib qolgan. Shu bilan birga, o'simliklar soni ham keskin kamayib bormoqda. Bundan tashqari, Orol yaqinida yashaydigan aholining hayoti og'irlashib, turli kasalliklar bolalar va onalar salomatligiga xavf solmoqda.

Orol va uning atrofidagi ekologik ahvolni yaxshilash borasida yurtimizda ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Hozirda Orol himoyasiga doir 20 ta loyiha ishlab chiqilgan. Orol bo'yiga hamda atrofiga saksovul va juzg'unlar ekilib, bu bilan tuzlar ko'tarilishining oldi olinmoqda.

Keling do'stlarim, biz ham yangi loyihalar yaratib, dengizimiz dardiga shifo topaylik. Orol uyimizdan yiroqda deb xotirjam bo'lmaylik, axir tabiat chegara bilmaydi.

Shahnoza SOBIROVA, Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 2-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi



Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 28-maktab o'quvchisi

Yo'lqin ESHQURVAJAYOV

Ulg'aygach daraxt kesish, suvga chiqindi oqizish kabi illalardan yiroq bo'ladi.

mehri qilib tartibyalashdir. Zero, bolalikdan tabiatga mehr qo'ygan inson, qiziqarli hikoyalari ayib beramiz. Magsadimiz, kichikimoylarni yoshlikdan tabiatga ko'rib, maktabimizning boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatni asrash haqida to'g'ri, bunday ko'ngilsiz hollarni



tabiatni amalda oshirildi. Maktablarda davomida ko'na diyorimizning tabiiy mo'jizalari himoyasiga oid ko'plab XXI asrning dastlabki o'n yilligi ham o'tib bormoqda. Shu yillar

ONATABIAT - CHEKMA AZIVATI

JONLI BURCHAGIMIZ BOR

Maktabimizda jonli burchak tashkil etilgan. U yerda «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi a'zolari olib kelgan hayvonlar parvarish qilindi. Tabiat qo'y-niga sayohatimiz davomida biror joyi lat yegan hayvonni uchratsak, tezda jonli burchagimizga olib kelib, ularni davolashga kirishamiz.



So'ngra ularni yana ona tabiat qo'yniga qaytaramiz. To'garagimizda gullarni ham mehr bilan parvarishlaymiz.

Bugun e'tiboringizga maktabimiz bog'ida hamda tuvakda o'stirgan gullarimning suratlarini havola qil-yapman.

Shahlo SAYDAXPAROVA, Farg'ona shahri, Farg'ona tumanidagi 8-maktab o'quvchisi

Bu e'olibtik menga ilhom bag'ishladi. Fortshimiz tabiatni kelib, film olishdi.

maqanchoblikka yo'lmang. O'zbekiston televideniyesidan xodimlar yulduzi»da e'lon qilingan mazkur maqolam meni mashhur qilib yubordi, desam haqidagi inshoim bilan qatnashdim va 3-o'rin sohibasi bo'ldim. «Tong tabiat, purvijgor tog'lari-yu ziloli suvlari, noyob hayvonot va nabotot olami Bugun yakunlangan «Onajonim tabiat» tanlovida Fortshimizning betakror insholar tanlovining tuman g'olibi bo'ldim.

lo'yhasi va xalq ta'limi bo'limining «Jonajon o'lkam tabiat» mavzusidagi tabiat mavzusini tanladim. «Nurota» «Qizilqum» axborot markazini bildirigan ishonchi oqlash uchun asoydli mehnat qila boshladim. Shunda yanada ko'proq mas'uliyat yukladi. Yangi avlod bolasi sifatida menga «Yangi avlod - 2008» bolalar ijodiyoti festivalidagi e'olibtikim zimamanga tanlov va tabiatlardagi ishtirokim mehriymi yanada oshirdi.


jabl etib ketadi. Jumladan, men ham uning shaydosiman. Tabiatga oid ko'plab maftunkorligi bilan biz insonlarni o'ziga doimo

- Tabiat betimsol go'zalligi, o'quvchisi:

3-o'rin sohibasi Shodiqbegim SHAROFIY, Farg'ona viloyati, Fortsh tumanidagi 59-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfi



QO'SHALOQ BAYRAM BO'LDI



5-iyun - Butunjahon atrof-muhit kuni gazetamiz orqali e'lon qilingan «Onajonim tabiat» insholar tanlovi g'oliblari uchun qo'shaloq bayram bo'ldi. O'zbekiston Ekologik Harakati binosining majlislar zalida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida ularni taqdirlash marosimi ham o'tkazildi.

Anjumanni O'zbekiston ekologik harakati Matbuot xizmati rahbari Tojiddin Qamarov olib bordi.

Yig'ilganlar O'zbekiston ekologik harakati Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasining Ekoharakat deputatlari guruhi rahbari Boriy Alixonovning chiqishlarini katta qiziqish bilan tinglashdi.

Shuningdek, «Buloqcha» («Rodnichok») bolalar ekologik jurnalining nishona soni taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Nihoyat, tadbiring eng hayajonli damlari boshlandi. «Onajonim tabiat» insholar tanlovi g'oliblariga O'zbekiston Ekologik Harakati hamda «Tong yulduzi» gazetasining «Faxriy yorliq»lari hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Ko'zingiz tushganmide, yo'qmi, poytaxtimizning Bunyodkor shoh ko'chasidagi «Istiqlol» saroyi ro'parasida qarovsiz bir maydoncha bo'lardi. Ana shu maydonchada barpo qilingan «O'zbekiston ekologik harakati bog'i»ning ochilish marosimi bolalar ijrosidagi kuy va qo'shiqlarga ulanib ketdi.

Tadbir so'ngida tanlov g'oliblarining taassurotlari bilan o'rtoqlashdik.

lug'ib qo'ydim.


bu kabi tanlovlarda qatnashishni va albatta g'olib bo'lishni dillimga
Ayini ta'lim kunlarida yanada ko'proq kitob o'qib, bilimlarimni boyitib,
3-o'rin sohibasi bo'ldim, degan yozuvlar to'y xatini yana bitirga boyitadi.
«Mening qishlog'im» insholar tanlovi g'olibasi, tuman «Kamolot» ijtimoiy
bo'lim, degan yozuv O'zbekiston televideniyesi orqali «lon qilingan
bilan yozib qo'yaman.» «Onajonim tabiat» insholar tanlovida 2-o'rin sohibasi
5-iyun 2010-yil. Endi ushbu sanani ham hayot daftrimga zarfah hafflar
deb o'yilamagandim...

egallabdi» degan xushxabar nafaqat men, balki oilamizning barcha a'zolarini
— «Gulira «Tong yulduzi»da e'lon qilingan insholar tanlovida 2-o'rin

2-o'rin
sohibasi Gulira
TOSHNAZAROVA,
Namangan viloyati,
Pop tumanidagi 8-
umumta'lim
maktabining 6-«A»
sinf o'quvchisi:



1-o'rin sohibasi Ma'rifat
FAYZULLAYEVA Jizzax viloya-
ti, Jizzax shahridagi 4-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi:



— «Tong yulduzi» eng sevimli nashrim.
Uning har bir sonini intizorlik bilan kutaman.
Yaqinda gazetada «Onajonim tabiat»
tanlovi e'lon qilingani haqida o'qib qoldim va
unda ishtirok etishga ahd qildim. Ona tabiat
shaydosi, adabiyot ixlosmandi bo'lganim
insho yozishimda qo'l keldi.

Inshoimda xazonlarni yoqishning zararli
oqibatlarini, ikki qirg'og'i chiqindilar bilan to'lib
yotadigan anhorning mahallamiz ko'rkiga dog'
bo'layotgani, shuningdek, Ozon qatlamining
yemirilishi, uning ayanchli oqibatlarini haqida yozdim. Fotolavhalar, o'zim chizgan
rasmlar bilan boyitib, tahririyatga yubordim.

Tunov kuni gazetani varaqlab, tanlov
g'oliblari ro'yxatida o'zimning ism-shari-
fimni ko'rib qoldim. Ana shu paytdagi
holatimni bir tasavvur qilib ko'ring-a!..

Bugun poytaxtimizda bo'lib o'tgan
katta anjumanda meni tanlovning 1-o'rin
sohibasi deya e'lon qilib, O'zbekiston
Ekologik Harakatining «Faxriy yorlig'i»
hamda «O'zbekiston tabiati» nomli albom
kitobni topshirishdagi quvonch-u
hayajonimni so'z bilan ifodalash qiyin.

Kelajakda jurnalist bo'lmoqchiman.
Ona sayyoramizdagi global muammo-
lar haqida dolzarb, tahliliy maqolalar
yozib, barchani ona tabiat
muhofazasiga chorlamoc-
chiman.



9-sinf o'quvchisi
Jizzax viloyati, Forish
Mafsun NORBEKOVA,
umumiy maktabning

mayjud.
vitamin A, Y, temir, kumush moddalarini, karotin, gand, limon, uzum kislotalarini
viloyatida o'stiriladi. O'rik mevalari tarkibida ko'p miqdorda askarabin kislotasi,
moddasi va vitaminlariga boy navlari Farq'ona vodiysi va Samarqand
Amerika, Avstraliya, Vengriya va Eronida tabiiy holda o'sadi. O'rikning gand
ekiladi. O'rik Osiyo tog'lari, markaziy Dog'iston, shimoliy-sharqiy Xitoy,
O'rik ko'pgina subtropik va mo'tadil iqlimga ega bo'lgan mamlakatlarda
havola qilmogdaman.
harakat qilaman. Bugun e'tiboringizga o'rik daraxti haqidagi ma'lumotlarni
Tog'larda o'sadigan har bir daraxtning shifobaxsh xususiyatlarini o'rganishga
Tabiatga qiziqqanim bois tog' yon bag'irlarida sayr qilishni xush ko'raman.

O'SIMLIKLAR SHIFOBAXSH



MENING



Kumushoy
DO'SCHANOVA Xo-
razm viloyati, Urganch
shahridagi 18-maktabning
4-«B» sinfida o'qiydi. Mak-
tabidagi «Yosh tabiatshu-
noslar» to'garagining eng
faol a'zolaridan. Kum-
shoyning qushlarni, de-
makki, ona tabiatni sevishi
tahririyatga yo'llagan sura-
tidan ham ko'rinib turibdi.

QANOTLI DO'STLARIM

MUAMMONING YECHIMI

Men Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida istiqomat qilaman. Tumanimiz
juda ko'rkam, xushmanzara. Hududimizda o'sadigan o'simliklar hamda
hayvonot dunyosi haqida ustozimiz Tohir aka Xolov ko'plab ma'lumot beradilar.
Ularning aytishlaricha, tumanimizning aksariyat qismi tekislikdan iborat bo'lgani
uchun tuproq shorlanishi muammosi kelib chiqar ekan. Bu muammoni oldini
olish uchun yerning ekologik muvozanatini tutib turuvchi tutzorlarni ko'paytirish
yaxshi natija berarkan. Biz har bir muammoning o'z yechimi bo'lishini anglagan
holda, ona tabiatimizda uchraydigan kichik muammolarga ham e'tiborli
bo'lishga harakat qilmoqdami.

Nafisa KARIMOVA,
Sirdaryo viloyati, Abdulla Qodiriy nomli
10-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

«AUDIO - ERTAK» UYIMIZDA

«Barkamol avlod yili» munosabati bilan «ART FLEX» nashriyoti va «Kitob dunyosi» gazetasi tahririyati jajji bolajonlar uchun ajoyib sovg'a tayyorladi.



Ma'lumki, nashriyat tomonidan nashr etilgan «Hayvonlar haqida ertaklar» turkumidan «Tulki va Turna», «Ko'zgu-cha», «Ficha Yasha», «Chumolicha va kabutar» ertak kitoblari keng kitobxonlar qo'liga yetib borgan. Endi kitoblar bilan birga eng sara ertaklarning ovozlashtirilgan diskrlari ham tayyorlandi va sotuvga chiqarildi.

Ushbu ertaklar jamlanmasi nafaqat bog'cha yoshidagi, balki maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ham mo'ljallangan bo'lib, ulardan «Odobnoma» darslarida hamda tarbiyaviy soatlarda foydalanish mumkin.

– Mashg'ulotlarni ertaklar asosida o'tishning afzalliklari juda ko'p, – deydi poytaxtimizdagi 426-maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi Go'zalxon Umarova. – Shu ma'noda audio-ertak bizga juda ma'qul bo'ldi...

– Erkatoylarimizning jajji qalblariga, ongi-yu shuuriga milliy ertaklarimiz orqali chin insoniy fazilatlarini, oliyanoblikni, Vatanni sevishni, tabiatni asrab-avaylashni singdirib boramiz, – qo'shimcha qildi onalar nomidan Dilshodaxon Ibragimova. – Bu borada ushbu audio-ertak bizning eng yaqin yordamchimiz bo'lishiga ishonaman.

Bugun avdio-ertak jamlanmasi har bir bolajoni borxonadonga kirib borishiga shak-shubha yo'q.

Feruz SOYIBJON qizi

Qadrli sportsevar bolajonlar! Avval xabar berganimizdek, bugun Andijonda bo'lib o'tgan «Universiada – 2010» sport musobaqalari haqida to'liqlanib hikoya qilmoqchimiz. Aminmizki, sport o'yinlarini ommaviy axborot vositalari orqali muntazam kuzatib boringiz. Ayniqsa, internetda ochilgan maxsus saytlardagi qizg'in bellashuvlar haqidagi maqolalar, fotolavhalar, ma'lumotlarni o'zbek, rus va ingliz tillarida berib borilganidan voqif bo'ldingiz. Hatto xorijlik muxlislarning ham shu sahifaga murojaat qilganliklaridan xabaringiz bormi?!



...28 may. Erta tongda yangragan kuy va qo'shiqlar ohangi Andijon ahlini sport bayramiga chorladi.

hamda Navoiy viloyati sportchilari uchinchi o'rinni egallashdi. Bosh sovrin – O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Universiada – 2010» sport o'yinlari ishtirokchilariga yo'llagan tabrigining asl nusxasi va «Damas» avtomobilini

ENDI BUXORO MEZBON!

Mamlakatimizda beshinchi bor o'tkazilayotgan «Universiada» sport o'yinlari, mana o'n yildirki, yurtimiz talaba-yoshlarining nufuzli anjumaniga, ya'ni kichik Olimpiadasiga aylanib ketdi. Uch kun davom etgan yoshlik, go'zallik, nafasat bayrami yoshlar qalbini shirin orzularga, betakror tuyg'ularga oshno etdi. Andijondagi «Universiada – 2010» sport o'yinlari mash'alasini taniqli sportchilar – suzish bo'yicha Osiyo kubogi sovrindori Shohruh Yunusov, sambo bo'yicha Osiyo chempioni Dildora Ubaydullayeva yoqdi. Sportning 12 turi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyatlaridan kelgan 1800 nafar talaba-yoshlar musobaqalarda qatnashdilar. Bellashuvlar Nizomga muvofiq Olimpiada talablariga qat'iy amal qilgan holda o'tkazildi.

Yosh avlod kamoloti yo'lidagi g'amxo'rliklar hozirda har bir viloyatda ezigulik izini qoldiryapti.

Andijondagi musobaqalar bir-biridan shinam va zamonaviy 31 ta maydonlarda o'tkazildi.

«Universiada – 2010» musobaqalari bu yil qatnashchilarga 176 ta oltin, 176 ta kumush va 191 ta bronza medalini tuhfa etdi. Umumjamo'a hisobida toshkentliklar birinchi, andijonliklar ikkinchi

toshkentliklar qo'lga kiritishdi. Umumjamo'a hisobida ikkinchi o'rinni egallagan andijonlik sportchilarga, shuningdek, uchinchi pog'onani egallagan navoiyliklarga ham Prezident sovg'asi – «Damas» avtomobillari topshirildi. Turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarga Diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi. «Universiada» bayrog'ini muso-

baqaning navbatdagi mezboni Buxoro viloyati va killari qabul qilib olishdi.

G'OLIB QALDIRG'OCHLAR

Bolalar, mamlakatimiz miqyosida kichik Olimpiada maqomiga erishgan beqiyos uchbosqichli sport musobaqalari yoshlar yuragidagi jo'shqinlikni, qalbidagi shijoatni, muhabbatni, mehmi o'zida aks ettira oldi va olmoqda. Uning ilk g'oliblari bugun jahon maydonlarida muvaffaqiyat qozonib, «Universiada»ning nufuzini yanada oshirmoqdalar. Shaxmat bo'yicha jahon chempioni Rustam Qo-



simjonov, Pekin Olimpiadasi sovrindorlari Abdulla Tangriyev va Riboshod Sobirov, taniqli sportchilardan Anton Fokin, Dilshod Mansurov, Abbas Atoev, Oqgul Omonmurodova, Sevvara Qodirova kabi o'nlab yurt faxriga aylangan sportchilarimiz «Universiada»ning dastlabki qaldirg'ochlaridir.



Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi, rasmlar muallifi Burxon RIZOQULOV

Chimyon tog' yon bag'ri nafaqat qishda, balki bahor va yoz fasllarida ham o'zining betakror go'zalligi, xushmanzaraligi bilan ko'pchilikni hayratga soladi. Shu bois, bu go'shadagi bolalar oromgohlari, dam olish manzillari doimo gavjum bo'ladi.

Yaqinda ana shu so'lim go'shada joylashgan qirg'iz va qozoq 38-umumta'lim maktabida qiziqarli uchrashuv bo'lib o'tdi. «Barkamol avlod yili» munosabati bilan uyushtirilgan «Kitob bayrami» ta'lim maskani o'qituvchilari va o'quvchilari uchun unutilmas kun bo'ldi.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi hamda «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati tashkil etgan bayramda noshir va jurnalistlarning maktab o'qituvchilari bilan bevosita muloqotlari, yanada qiziqarli bo'ldi.

Yig'ilganlarga nashriyat-matbaa ijodiy uyi direktorining birinchi o'rinbosari Shomuhiddin Mansurov, NMIU Bosh muharrir o'rinbosari Jabbor Razzoqov, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri – yozuvchi To'liqin Hayit, NMIU Bosh muharriri Ibdulla Shoyimardonov nashr qilinayotgan bolalar gazeta va jurnallari, yangi kitoblar hamda darsliklarni tayyorlash, chop etish, ularni o'quvchilar o'rtasi-

CHIMYONDA



UCHRASHDIK

da targ'ib qilish ishlari haqida so'zlab berdi.

O'qituvchi va o'quvchilar chop etilayotgan darsliklar bo'yicha taklif va mulohazalar bildirdilar. O'zbek, qirg'iz va qozoq tillarida she'rlar yangradi. Maktabning Oybibi Mamatova, Umida Toshmatova, Behruz Olimjonov, Gulmira Nazarova kabi eng yaxshi she'r o'qigan o'quvchilariga badiiy kitoblar taqdim etildi.

ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy kitoblar, darsliklar hamda «Tong yulduzi» gazetasining yangi sonlari tortiq etildi.

Shuningdek, shu yerda joylashgan Chimyon bolalar sanatoriyida ham noshir va jurnalistlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

– Sihatgohimizda mamlakatimizning turli viloyatlaridan kelgan 150 nafar o'g'il-qiz o'z sog'lig'ini tiklamoqda, – deydi biz bilan

bo'limi mudiri Norpo'lat Qurbonov hamda 38-maktab direktori Doniyor Umartoyevlar tog'lar orasidagi olis qishloq ta'lim muassasalarida ana shunday uchrashuvlarni tashkil qilganliklari uchun «O'zbekiston» NMIU va «Tong yulduzi» tahririyati jamoasiga o'z minnatdorchiligini bildirishdi.

Jabbor RAZZOQOV



Turli mamlakatlarda tinchlik, qadr-qimmat, tenglik ruhida kamol topayotgan farzandlar bilan birga nihoyatda og'ir sharoitlarda yashayotgan bolalarning ham borligi hech birimizga sir emas.

Shu va yana ko'plab jihatlarni e'tirof etgan holda 1989-yil 20-noyabrda BMT tomonidan «Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya» qabul qilindi. 54 maddadan iborat mazkur Konvensiyaga 1992-yili O'zbekiston Respublikasi ham rasman qo'shildi.

2007-yil 27-noyabrda yurtimizda «Bolalar huquqlari kafolatlari to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

Farzandimizga e'tiborsiz bo'lsak, fikrlari bilan hisoblashmasak, o'zimiz sezmaganda unga ruhiy zarba bergan, erkin fikrlaydigan, o'z haq-huquqlari uchun

kurasha oladigan inson bo'lib yetishishiga to'sqinlik qilgan bo'lamiz. Har bir loqaydligimiz yillar o'tib o'zimizga juda qimmatga tushishi mumkin. Biz o'qituvchilar bolaga o'z huquqlari bilan birga burch va majburiyatlari nimalardan iborat ekanligini turli trening mashg'ulotlari, suhbatlar, uchrashuvlar, «Sen qonunni bilasanmi?» kabi ochiq darslar orqali o'rgatib borishga harakat qilamiz.

O'z navbatida farzandlarimizga qarata, o'z huquq va burchlaringiz bilimdoni bo'ling, mustaqil hayotda sira qoqilmaysiz, degim keladi.

Gulchehra MIRBOBOYEVA,
poytaxtdagi 132-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



YURTNI OBOD ETAYLIK

Mevalaring tilni yorar,
Tuproq emas, zaring bor.
Bog'bon-u dehqon bobo,
Bari sendan minnatdor.
Ko'zlarni quvontirar,
Qir-adirda lolalar.
Zavqqa to'lib ulg'ayar,
Hur bag'ringda bolalar.
Sen-la faxrlanaman,
Yurtim, sharaf-u shonim.
Bag'ringda shodon o'tar,
Beg'am bolalik onim.
Keling do'stlar, diyorni,
Ko'rkam, obod etaylik.
Osmoni tinch, musaffo,
Yurt qadriga yetaylik!

Mohira NAZAROVA,
poytaxtdagi 200-maktab o'quvchisi

SIZ SUYANGAN BOG'IMSIZ

Qiblagohim – otajon,
Siz ishongan tog'imsiz.
Otilamiz ustuni,
Suyangan gul bog'imsiz.
Bag'ringizga qo'ysam bosh,
Go'yo charaqlar quyosh.
Otash kabi mehringiz,
Har joyda menga yo'ldosh.
Xasta bo'lsam, qoshimda
Parvonasiz o'zingiz.
Ezgulikka boshlaydi,
Har bir aytgan so'zingiz.

Maftuna BOTIROVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 25-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

HUQUQINGNI BILASANMI, BOLALARIMIZ?



kurasha oladigan inson bo'lib yetishishiga to'sqinlik qilgan bo'lamiz. Har bir loqaydligimiz yillar o'tib o'zimizga juda qimmatga tushishi mumkin. Biz o'qituvchilar bolaga o'z huquqlari bilan birga burch va majburiyatlari nimalardan iborat ekanligini turli trening mashg'ulotlari, suhbatlar, uchrashuvlar, «Sen qonunni bilasanmi?» kabi ochiq darslar orqali o'rgatib borishga harakat qilamiz.

O'z navbatida farzandlarimizga qarata, o'z huquq va burchlaringiz bilimdoni bo'ling, mustaqil hayotda sira qoqilmaysiz, degim keladi.

Gulchehra MIRBOBOYEVA,
poytaxtdagi 132-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilibimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tongyulduzi@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftanin
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 69289
Buyurtma N: J 9605

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi yozirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.